

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-2/1

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.
Абдуллаев Рашид Бабажонович, тиб.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,
т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Жугинисов Тангирберген Исаевич, б.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,
проф.
Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.
Рўзиев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машириповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,
б.ф.д., академик
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
Ўразбоев Файрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№2/1 (98), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 196 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

МУНДАРИЖА БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Buronov A.Q., Shukurova M.I. O'zbekistondagi qadimiy mahalliy yumshoq bug'doyning qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish	5
Eshmuratov R.A., Annamuratova D.R., Turaeva M.K., Egamberdieva S.A. Xorazm tuproq-iqlim sharoitida staxis byzantina o'simligini ko'paytirish usullari va hosildorligi	8
Madaminov R., Baxodirov Z., Abdirimov X. Suv ta'minoti turli bo'lgan maydonlarda kuzgi bug'doy o'simligining spektral xususiyatlari	11
Negmatova S.T., Xasanov Sh.B., Nurullayeva M.Sh., Atayeva S.S. Indigoferada dukkaklar shakllanishi va don hosiliga biostimulyatorlarning ta'siri	16
Omonova N.M., Madaminova X.A. Pomidordagi fuzarioz kasalligiga qarshi biologik kurash	20
Rayimov A.R., Zohirova N.Z. Species composition and number of insects found in vegetable, cucurbit fields of the Bukhara region	24
Sultonova K.R. In vitro sharoitda lagochilus Inebrians Bunge o'simligini mikroklonal ko'paytirish	28
Umarov F.A., Nazarov M.Sh., Toshpo'latov I.M. Norin daryosida uchrovchi Amudaryo foreli (Salmo oxianus)ning morfometrik ko'rsatkichlari	30
Акрамова Ф.Д., Уббиниязова Ж.К., Торемуратов М.Ш., Акбаров А.А., Шакарбаев У.А., Саидова Ш.О., Эсонбоев Ж.Р., Сапаров К.А., Азимов Д.А. Гельминтоценозы полорогих (Bovidae gray, 1821) северо-западного Узбекистана	33
Бахиев К.А. Экологические принципы исследования состояния систем водоснабжения в Республике Каракалпакстан	38
Избосарова З.Э., Халиллаев Ш.А., Медетов М.Ж. Жиззах вилояти тўғриқанотли хашаротлари (Insecta: Orthoptera) тур таркиби ва уларнинг биоэкологияси	42
Маманазаров Ш.И., Муҳаммадов Й.А., Хўжамбердиева Ш.М., Мирзоёкубов К.Э., Ачилов С.Г., Дармонов М. Ўрта толали Порлок-4 ғўза навининг дала унувчанлиги ва пахта ҳосилдорлиги	46
Равшанова А.Р., Акрамова Ф.Д., Шакарбаев У.А., Сапаров К.А., Азимов Д.А. Фауна и экология гельминтов гусеобразных птиц Айдар-Арнасайской системы озер	48
Сафаров А.А., Абдинабиев О.Б., Юсупов М.М. Ўзбекистонда диروفилариоз касаллигининг тарқалиши бўйича эпидемиологик тафсилот	52
Таумуратова Г.Н. Состояние биоресурсов в условиях Южного Приаралья и вопросы развития экотуризма	56
Тўхтаева Ф.Ш., Юлдашев Н.М., Махмудов Р.Р., Мустафакулов М.А., Рахмонова Г.Г., Баратов К.Р. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ўсувчи Plantago оиласига мансуб ўсимликлардан ажратиб олинган флавоноидлар суммасини тажрибавий қандли диабетда биокимёвий кўрсаткичлар коррекциясида самарадорлигини баҳолаш	62
Урмонова Д., Шералиев Б. Сўх дарёси сув ҳавзаси ихтиофаунасининг таксономик ревизияси	70
Утегенов И.Б. Особенности роста некоторых интродуцированных видов рода ильм или вяза (Ulmus L.) на засоленных почвах Каракалпакстана	73
Хасанов Н.С., Кодиров Б.Э., Хужанов А.Н., Исмоилов З.Ф., Ташпулатов Й.Ш. Самарқанд ўлмасўти (Helichrysum maracandicum Popov ex Kirp.) ning in vitro шароитида уруғларини унувчанлиги ва майсаларини яшовчанлиги	76
Холлиев А.Э., Кенжаев А. Ўсимликларнинг абиотик омилларга чидамлигини баҳоловчи биологик ва экологик белгилар	80
Худжанова М.А. Турли экспериментал гельминтозли қорақўл қўйларида қон ивиш босқичлари динамикаси	84
Эсанов Х.Қ., Раҳмонов Н.Р., Олимова С.О. Жануби-ғарбий Қизилқум флорасининг экотополик таҳлили	89

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ФАНЛАРИ

Barotova A.R., Yakubjonova N.A. Murakkab duragaylash orqali yaratilgan oilalarda tola chiqimi va tola uzunligining shakllanishi	95
Idrisov X.A. Takroriy ekin sifatida ekilgan mosh (Phaseolus aureus Piper) navlari barg rivojlanishini o'rganish	97
Jaynaqov M.Sh., Kurbanbayev I.D., Nematova M.G'., Abdurasulov N., Abdurasulov O., Akramov I. Ayrim sholi navlarining miqdoriy ko'rsatkichlari	100
Yulchiev E.Yu., Yunusova L.K., Tuychiyeva D.S., Usmanov U. Mineral o'g'itlar asosida tayyorlangan spenziyalarni 2-3 chin bargli va shonalash davrida paxta hosiliga ta'siri	102

UDK.575.162

O'ZBEKISTONDAGI QADIMIY MAHALLIY YUMSHOQ BUG'DOYNING QIMMATLI XO'JALIK BELGILARINI O'RGANISH

A.Q.Buronov, dots., Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq
M.I.Shukurova, magistrant, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistondagi qadimiy mahalliy yumshoq bug'doy nav namunalari hosildorlikni ta'minlovchi o'simlik buyi, boshqoq uzunligi, boshqoqchalar soni, boshqodagi don soni belgilari tahlil qilingan. O'rganilgan namunalarimizning o'simlik bo'yi uzunligi belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Qizil bug'doy, Qizil Sharq, Qora qiltiq navlarida, nisbatan past bo'lyi o'simliklar Buxor bobo navlarida kuzatildi. Bir boshqodagi don soni barcha o'rganilgan navlarda o'rtacha 40 dona ga teng bo'ldi, boshqodagi don og'irligi o'rtacha 2,2 grammi tashkil etdi. Bu ko'rinishdagi axborotlarning mavjud bo'lishi bug'doy kolleksiyasining o'rganilish darajasini oshiradi hamda respublika sharotiga moslashgan yangi navlar yaratishda qimmatli donor sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlari: Qadimiy mahalliy bug'doy, hosildorlik, qimmatli xo'jalik belgilari, o'simlik buyi, boshqoq uzunligi, boshqoqchalar soni, boshqodagi don soni.

Аннотация. В данной статье проанализированы высота растений, длина колоса, количество колосов и количество зерен в колосе стародавних местных сортов мягкой пшеницы в Узбекистане. Высокий показатель длины растений изучаемых нами образцов отмечен у сортов Кизил бугдой, Кизил Шарк, Кора килтик, а относительно низкорослые растения у сорта Бухор Бобо. Количество зерен в одном колосе составило в среднем 40 зерен у всех изученных сортов, масса зерна в колосе в среднем 2,2 грамма. Наличие такого рода информации повышает уровень изученности коллекции пшеницы и может быть использовано как ценный донор при создании новых сортов, адаптированных к условиям республики.

Ключевые слова: Стародавних местных сортов пшеница, производительность, ценные хозяйственные признаки, рост растений, длина колоса, количество колосьев, количество зерен в колосе.

Abstract. This article analyzes plant height, ear length, number of ears and number of grains per ear of landrace wheat in Uzbekistan. A high indicator of the length of plants of the samples studied by us was noted in the varieties Kizil Bugdoy, Kizil Shark, Kora kiltik, and relatively short plants in the variety Bukhor Bobo. The number of grains in one ear averaged 40 grains in all studied varieties, the weight of grain in an ear was 2.2 grams on average. The availability of this kind of information increases the level of knowledge of the wheat collection and can be used as a valuable donor in the creation of new varieties adapted to the conditions of the republic.

Kew words: Landrace wheat, productivity, valuable economic traits, plant height, ear length, number of ears, number of grains in an ear.

Kirish. Bug'doy yer yuzida ekiladigan maydonning 17% ni egallaydi [6] va insoniyat iste'mol qiladigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanib, dunyo aholisining oqsilga bo'lgan talabini 40% gacha qondira oladi. *Triticum aestivum L.* – donining tarkibida oqsil (seleksiya navlarida 10–12% dan 20–25% gacha, yovvoyi turlarida 25–30% gacha), kraxmal (60–64%), yog'lar (2%), vitaminlar, fermentlar, mineral va boshqa moddalar mavjud. Shuningdek, don va kepagi chorva uchun qimmatli yem, somoni xashak sifatida ishlatiladi [2].

Ma'lumki, hozirgi vaqtda o'n minglab qadimiy mahalliy bug'doy navlari urug'chilik genbanklari tarkibida saqlanadi va fermerlar shaxsiy tomorqalarida ekiladi, biroq ulardan ko'pchiligi muvofiq tarzda tavsiflanmagan va seleksiya maqsadlarida samarali foydalanish uchun o'rganilmagan. Shuni hisobga olgan holda O'zbekistondagi qadimiy mahalliy bug'doy navlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi [3.4.5].

Mavzuga oid manbalar tahlili. Kuzgi bug'doy hosildorligi navning biologik xususiyatlariga, iqlim sharoiti, suv, yorug'lik, oziqa rejimiga, qo'llanilgan agrotexnologik tadbirlarga bog'liq holda

o'zgaradigan ko'rsatkichdir. Har bir tashqi muhit omili kuzgi bug'doy hosildorligi va don sifatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [10].

Hosildorlik ma'lum birlikdagi o'simliklar hosilining yig'indisidir. Tup qalinligini oshib borishi bilan alohida olingan o'simlikning mahsuldorligi pasayib boradi, ammo hosildorlik ma'lum darajada oshib boradi. Bunda ma'lum birlikdagi maydonda o'simliklar soni optimallasadi, hosildorlik eng yuqori bo'ladi, keyinchalik hosildorlikni sekinlik bilan pasayib borishi kuzatiladi. Hozirgi kunda bug'doy hosildorligini gektaridan 20 tonnaga yetkazish nazariy jihatdan aniqlangan bo'lib, amaliyotda 14 tonnagacha hosil olingan [1].

Donli va dukkakli ekinlarning hosili turli davlatlar va mintaqalarda turlicha bo'lib, tabiiy iqlim, tuproq, agrotexnika sharoitlariga qarab o'zgaradi [8].

Kuzgi bug'doy bahorgi bug'doyga nisbatan kuz, qish va bahorgi yog'ingarchiliklardan hosil bo'lgan tuproqdagi namlikdan yaxshi foydalanadi. Natijada jazirama issiqdan, garmseldan kam zararlanadi va yuqori hosil shakllanadi [11].

Fethi va Mohammed [12] olib borgan ilmiy izlanishlarida, qattiq bug'doyning boshloqlar soni, bir boshloqdagi boshloqchalar soni va boshloqchalardagi don soni hamda bir boshloqdagi don soni belgilarining epistatik ta'siri additiv ta'sirga nisbatan ustunroq ekanligi ta'kidlagan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotlarimizda qadimiy mahalliy nav namunalarini hosildorlikni ta'minlovchi belgilari tahlil qilingan. Bu navlar respublikada asosan shaxsiy xo'jaliklarda yoki tog'li hududlarda uncha katta bo'lmagan maydonlarda ekilib kelinayotgan Qizil va Oq bug'doy navlarining turli hududlardan yig'ilgan namunalari va nisbatan qadimiy bo'lgan, lekin hozirgacha katta maydonlarda ekilib kelinayotgan Surxak navi. Tahlil o'tkazish uchun boshlang'ich ma'lumotlar sifatida o'rganilayotgan 21 navning qimmatli xo'jalik belgilaridan foydalanildi.

Ushbu navlarning miqdoriy belgilari bir xil sharoitda va uch qaytariqda ekilib, o'simlik bo'yi, boshloq uzunligi, boshloqchalar soni, bir boshloqdagi don soni, bir boshloqdagi don og'irligi ko'rsatkichlari laboratoriya va dala sharoitida aniqlanib statistik tahlil qilindi.

Butun dunyoda seleksioner olimlar tomonidan yaratilgan nav va tizmalarni tahlil qilish natijasida, bug'doy o'simligining bo'yi keyingi 25 yil ichida 50-60 sm ga pasayganligi kuzatilgan [7].

O'rganilgan namunalarimizning o'simlik bo'yi uzunligi belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Qizil bug'doy ($131,0 \pm 2,9$), Qizil Sharq ($130,1 \pm 2,5$), Qora qiltiq ($126,0 \pm 2,4$) navlarida, nisbatan past bo'yi o'simliklar Buxor bobo ($74,2 \pm 1,0$), Qayroqtosh ($85,0 \pm 0,8$) navlarida kuzatildi. Boshqa navlarda belgining o'rtacha ko'rsatkichi 90-125 sm oralig'ida bo'ldi.

Boshloq uzunligi bo'yicha qadimiy navlarda katta bo'lmagan polimorfizm kuzatilib, ko'pchilik namunalarda boshloq uzunligi 11,0-12,0 sm ni tashkil etgan bo'lsa, bir necha navlardagi o'simliklarda boshloq uzunligi o'rtacha 9,5-10,0 sm ekanligi kuzatildi.

Bug'doy o'simligining boshloqdagi boshloqchalar soni turiga va navga xos belgi bo'lib, boshloq shakllanish davridagi tashqi muhit sharoiti, o'simlikni ekish va oziqlantirish usuliga, kunning uzunligiga bog'liq holda o'zgaradi. Hosildorlikni bir maromda bo'lishligini himoyalash biotik stresslarga chidamli va abiotik omillarga bardoshli bo'lgan navlar yaratish orqali erishish mumkin [9].

Navlar orasida 17,0-17,9 dona boshloqchalar Qizil sharq navidan boshqa hamma navlarda kuzatilgan bo'lsa, 18,0 donadan yuqori boshloqchaga ega bo'lgan o'simliklar Xivit, Oq boshloq, Qizil bug'doy va Pashmak navlarida bo'ldi.

O'rganilgan qadimiy mahalliy navlar ichida eng yuqori ko'rsatkich Oq boshloq navida $18,7 \pm 0,40$ ni, eng past ko'rsatkich Qizil Sharq navida $15,4 \pm 0,30$ donaga teng ekanligi kuzatildi.

Shunga qaramay boshloq zichligi, ya'ni boshloqchalar soni 16 tadan 18 tagacha bo'lishi uning siyrak joylashganligini ko'rsatadi. Bir boshloqdagi don soni barcha o'rganilgan navlarda o'rtacha 40 dona ga teng bo'ldi, boshloqdagi don og'irligi o'rtacha 2,2 gramni tashkil etdi.

Hosildor navlar yaratishda boshloqdagi don soniga qarab tanlanadigan bo'lsa, sermahsul namunalarini tanlab olish imkoniyati ancha oshadi.

Boshloqdagi don soni belgisi ko'rsatkichlari navning genetik imkoniyatlariga bog'liqdir.

Navlarda bir boshloqdagi don soni belgisining o'rtacha ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin bo'lib, boshloqlarda 37,7 donadan 45,0 donagacha don hosil bo'lganligi kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich

Tuyatish, Muslimka, Qizil bug'doy navlarida bo'lib, mos ravishda $43,8 \pm 0,63$; $45,0 \pm 1,77$; $43,3 \pm 1,58$ donaga teng bo'ldi.

1-jadval

Qadimiy mahalliy bug'doy navlarida hosildorlikni belgilovchi miqdoriy belgilar

№	Navlar	O'simlik buyi,sm		Boshqoq uzunligi,sm		Boshqoqchalar soni,dona		Boshqodagi don soni, dona		Boshqodagi don og'irligi,gr	
		x ±Sx	V%	x ±Sx	V%	x ±Sx	V%	x ±Sx	V%	x ±Sx	V%
1	Kizil bug'doy (Qo'g'a)	131,0±2,9	4,3	12,1±0,23	6,2	18,2±0,70	5,9	45,5±1,51	9,6	2,2±0,12	5,6
2	Kizil bug'doy (Qo'rg'oncha)	130,5±3,6	5,6	11,6±0,33	5,6	18,6±0,37	7,4	43,3±1,58	9,8	2,8±0,18	6,5
3	Kizil bug'doy (Gumatak)	124,9±1,3	3,9	12,5±0,34	4,8	18,1±0,69	5,8	45,9±1,06	8,4	3,1±0,14	8,6
4	Buxor bobo (Qiziltom)	74,2±1,0	3,2	10,1±0,23	4,1	18,4±0,31	5,7	43,2±1,00	7,1	1,8±0,08	6,8
5	Kizil bugdoy (Duoba)	119,5±2,3	7,2	11,1±0,48	6,4	18,2±0,70	9,4	39,1±1,71	7,6	2,1±0,10	9,7
7	Oq bug'doy (Qo'g'a)	122,5±1,6	4,2	12,2±0,46	4,8	18,1 ±0,69	9,7	42,3 ±1,27	10,6	2,2 ±0,15	5,9
8	Oq bug'doy (Guldara)	99,5±1,7	5,5	12,4±0,42	5,6	20,1±0,62	6,3	42,6±1,42	11,0	1,9±0,12	6,2
9	Tuyatish (Qiziltom)	114,5±3,7	6,3	9,2±0,30	6,1	19,3±0,50	5,4	43,8±0,63	11,4	2,3±0,10	6,6
10	Surxak (Duoba)	116,0±1,9	7,1	12,3±0,21	5,8	16,9±0,41	5,6	37,7±1,14	9,6	1,8±0,08	7,8
11	Grekkum (Guldara)	122,5±1,7	6,4	12,2±0,24	7,2	17,8±0,44	5,8	41,4±1,00	7,9	2,3±0,08	10,4
12	Kalbug'doy (Qiziltom)	102,0±1,3	5,3	9,5±0,22	4,8	17,6±0,39	6,2	42,3±1,15	8,7	2,5±0,09	11,2
13	Qizil Sharq (Qo'g'a)	130,1±2,5	6,8	10,4±0,33	5,6	16,8±0,42	7,6	40,3±1,25	9,6	2,1±0,10	11,6
14	Qora qiltiq	126,0±2,4	5,7	9,8±0,32	7,2	16,6±0,22	8,1	39,0±0,68	10,1	2,0±0,09	9,8
15	Surxak (Qiziltom)	115,0±1,8	7,1	10,5±0,16	4,2	17,3±0,42	9,4	42,2±1,25	8,9	2,1±0,11	10,2
16	Boysun Tura-1	90,5±1,5	6,4	9,4±0,16	5,8	17,8±0,49	4,8	44,4±1,02	9,6	2,4±0,14	11,0
17	Qayroqtosh	85,0±0,8	4,2	9,9±0,23	6,4	18,7±0,26	4,5	46,2±0,81	9,1	2,5±0,11	8,1
18	Oq boshqoq	88,6±1,3	5,8	9,7±0,26	6,4	17,2±0,44	6,2	40,6±1,23	10,4	2,3±0,08	5,6
19	Qizil boshqoq	118,7±0,8	4,1	9,9±0,23	7,5	17,3±0,40	3,9	42,8±1,16	8,6	2,4±0,14	8,6
20	Boysun Tura-2	114,5±2,0	4,8	9,4±0,16	7,1	18,5±0,60	4,6	44,5±1,22	9,2	2,4±0,12	8,1
21	Muslimka	110,0±2,0	5,5	11,1±0,28	6,9	18,9±0,48	5,4	45,0±1,77	10,6	2,5±0,11	10,0

Qadimiy mahalliy navlarimizdan Qizil bug'doy (Gummatak) navida bir boshog'dagi don vazni ($3,1 \pm 0,14$) yuqori ko'rsatkich kuzatildi. Navlarda eng yuqori ko'rsatkich Tuyatish, Oq boshog va Muslimka navlarida (mos ravishda $2,3 \pm 0,3$; $2,3 \pm 0,2$; $2,5 \pm 0,3$) va eng past ko'rsatkich Surxak navida ($1,8 \pm 0,2$) kuzatildi.

Xulosa. Hozirgi vaqtda o'n minglab mahalliy bug'doy navlari urug'chilik banklari tarkibida saqlanadi va fermerlar dalalarida ekiladi, biroq ulardan ko'pchiligi muvofiq tarzda tavsiflanmagan va seleksiya maqsadlarida samarali foydalanish uchun o'rganilmagan. Bu ko'rinishdagi axborotlarning mavjud bo'lishi bug'doy kolleksiyasining o'rganilish darajasini oshiradi, uning faol holatdagi tarkibini optimallashtirish va ular ustida ishlashga sarflanuvchi moddiy va mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi. Barcha belgilar bo'yicha yuqori ko'rsatkich Qizil bug'doy namunalari kuzatildi. Nazorat sifatida foydalanilgan Surxak navida esa barcha belgilar bo'yicha kursatkich nisbatan past bo'lib, bu nav uzining birlamchi ko'rsatkichlarini yo'qotib borayotganligi aniqlandi. Bundan tashqari yumshoq bug'doyning respublika sharotiga moslashgan yangi navlar yaratishda qimmatli donor sifatida ishlatish mumkin ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amanov A.A., Gafurova L.A., Nurbekov A.I. Zernovodstvo v Uzbekistane. Jurnal Koordinatsionnogo Soveta po zernovodstvu. – Tashkent, 2005. -B.11.
2. Atabayeva H., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. - B. 58.
3. Baboyev S.K., Usmanov R.M., Buronov A.K., Morgunov. A.I. Izucheniye starodavnix mestnix sortov pshenitsi Uzbekistana- Doklat.ANRUz, Toshkent-2013, №1, - B.82-83.
4. Baboev S. K. et al. Biological and agronomical assessment of wheat landraces cultivated in mountain areas of Uzbekistan //Sel'skokhozyaistvennaya Biologiya. – 2017. – T. 52. – №. 3. – C. 553-560.
5. Baboev S., Muminjanov H., Turakulov K., Buronov A., Mamatkulov I., Koc E., & Morgounov A. (2021). Diversity and sustainability of wheat landraces grown in Uzbekistan. *Agronomy for Sustainable Development*, 41(3), - P.1-13.
6. Goncharov N.P. Sravnitel'naya genetika pshenits i ix sorodichey // Pervie zaveduyushiy Byuro po prikladnoy botanike i organizatori Gossortseti. – Novosibirsk: Akad. izd-vo "Geo", 2009. - St. 40-69.
7. Katalog mirovoy kolleksii VIR. Redkiye vidi pshenitsi. Geneticheskoye raznoobraziye kolleksii pshenitsi spelti (*Triticum spelta* L.).SPb: VIR, 2004. Vip. №752.-R. 3.
8. Kurbonov G'Q. Donli ekinlar urug'shunosligi. – Qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlarining agronomiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – T., 2004. - B.112.
9. Umirov N. Boshog'li donning kasallikka chidamli duragaylari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2000. №5. - B. 32-33.
10. Xonazarov A.A., Amonov A.O. O'zbekistonda g'allachilikni rivojlantirishning muammolari // O'zbekistonda g'allachilikni rivojlantirishning yaratilgan ilmiy asoslari va muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman – G'allaorol, 2007. - B.14-18.
11. Xalilov N.X. Donli ekinlar biologiyasi. – Samarqand, 2002. - B.78.
12. Fethi B., Mohammed E.G. Epistasis and genotype-by environment interaction of grain yield related traits in durum wheat.// Plant Breeding and Crop Sci. 2010.V.2. №2. - B.24-29.

UO'K 631.559.633.2/.4.

XORAZM TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA STAXIS BYZANTINA O'SIMLIGINI KO'PAYTIRISH USULLARI VA HOSILDORLIGI

R.A.Eshmuratov, b.f.n., dotsent, Nukus davlat pedagogika intituti, Nukus

D.R.Annamuratova, b.f.n., dotsent, Urganch davlat universiteti, Urganch

M.K.Turaeva, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch

S.A.Egamberdieva, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm tuproq-iqlim sharoitida introduksiya qilinayotgan yangi manzarali va dorivor *Stachys turkumi* turlaridan *Stachys byzantina* = *S.lanata* o'simligining ko'paytirish usullari, yetishtirish agrotexnologiyasi va hosildorligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. *Stachys*, *S. Byzantina*, introduksiya, urug', ko'chat, novda, qalamcha, ekish sxemasi, quruq massa, hosildorlik.